

## TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Homiyatova Mavluda Amon qizi

**Annotatsiya:** Bolalar adabiyoti pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishi va ta'limida muhim rol o'ynaydi. Kitoblar bolaga dunyoning qanday ekanligini tushunishga yordam beradi. Bolalar adabiyoti asosan bolaning qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantiradi. Kitobga qiziqish mактабгача yoshdagi davrda paydo bo'ladi, chunki mактабгача yoshdagi bolaning his – tuyg'ulari ayniqsa hissiyotlidir. Badiiy asarlar bolaning his – tuyg'ulari va ongiga faol ta'sir qiladi, uning sezgirlini va hissiyilagini rivojlaniradi.

**Kalit so'zi:** bolalar adabiyoti, mактабгача yoshdagi bolalar kitobxonligi, nutq o'stirish mashg'uloti, hikoya qilish, qayta hikoya qilish, so'zlashish suhbat metodlari.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalaشتirish, she'rni yod oldirish tarbiyachiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarining nutqlari bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz tarbiyachining asar yuzasidan bergen savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jumlalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, tarbiyachiga taqlid qilib, ularning ovozini o'xshatishga harakat qiladilar. Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutq normalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga hamda tilning emotsional tomonlarini his etish qobiliyati rivojlanishiga, og'zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta'sir etadi.

So'zlashish-suhbat metodidan bolalar lug'atini faollashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali bola lug'atidagi so'zlardan o'rinli foydalanishga, gaplarni to'g'ri tuzishga o'rganib boradi. Bunda tarbiyachi kichik guruhda tabiiy obyektlar va ularning modellari (o'yinchoqlar, suratlar)ga tayanish usullaridan, katta guruhlarda esa so'zli didaktik o'yinlardan foydalanadi. Qayta hikoya qilish metodidan besh yoshli bolalar guruhida tashkil etiladigan ishlarda keng foydalaniladi. Uning yordamida bolalar nutqining leksik, grammatik, intonatsion jihatlari shakllanadi. Ular bog'lanishli dialogik va monologik nutqni badiiy asar namunalari yordamida amaliy tomonidan egallab oladilar.

Badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o‘rgatishda tarbiyachining asosiy vazifasi mazkur yoshdagi bolalarga mos bo‘lgan asarlarni tanlashdir. Hikoya o‘ylab toppish (to‘qish) metodi bolalarni ijodiy izlanishga: kuzatganlari bo‘yicha hikoya tuzish; xotiradan hikoya tuzish; xayoliy hikoya tuzishga o‘rgatadi. Maqsadga muvofiq hisoblangan ish rejalaridan biri – bu mashg‘ulotning oylik, haftalik ish rejasidir. Oylik ish rejada mashg‘ulotlarning izchilligi, unda ona tilining barcha komponentlari (lug‘at ishi, tovush madaniyatini tarbiyalash, bog‘lanishli dialogik va monologik nutq, tilning grammatik qurilishi)ni rivojlantirish o‘z aksini topadi. Bola nutqining hamma tomonlarini bir vaqtning o‘zida parallel tarzda rivojlantirib borish kerak, chunki bola nutqini o‘stirish bo‘yicha ish vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun bir mashg‘ulotning o‘zida bola nutqini o‘stirishning bir necha vazifalari hal etiladi, ammo ulardan biri asosiy hisoblanib, boshqasi esa mashg‘ulotning bir qismi sifatida rejalaشتiriladi.

Har bir mashg‘ulotni rejalaشتirishda bolalar bilan ishslash usullari aniqlanadi. Ular mashg‘ulotning murakkablik darajasiga qarab har xil bo‘lishi mumkin: tabiiy materiallar va ularning modellari (o‘ynchoqlar), ko‘rgazmali qurollardan foydalanish (rasmlar, illustratsiyalar, diafilmlar va kinofilmlar), tarbiyachining nutq namunasi, badiiy matnlar; savol-topshiriqlar, ko‘rgazmali qurollar, tushuntirish, magnitofon tasmalari, so‘zli didaktik o‘yinlar, sahnalaشتirilgan o‘yinlar va hokazolar.

Ish usullari nutqni rivojlantirish bo‘yicha vazifalarning mazmuniga (fonetika, leksika, grammatika) va nutqiy malakalarning rivojlanganlik darajasiga qarab tanlanadi. Rejada yoki mashg‘ulot ishlanmasida quyidagilar o‘z aksini topishi kerak: mashg‘ulotning maqsadi (tarbiyaviy, ta’limiy, ayniqsa, nutqiy vazifa); mashg‘ulotni o‘tkazish joyi (guruh xonasi, boshqa xizmatchi va yordamchi xonalar yoki bolalar bog‘chasining yer maydoni, shahar ko‘chasi, muktab binosi, xiyobon, bog‘, dala, va hokazolar); ish usullari (kuzatish, suhbat, tarbiyachining hikoyasi, didaktik o‘yinlar va hokazo); didaktik materiallar (tabiiy obyekt, o‘ynchoqlar, rasmlar, badiiy asar matni).

Mashg‘ulot rejasi tarbiyachiga butun bir mashg‘ulotni hamda uning har bir qismi tuzilishini aniq belgilashga, bir ish turidan ikkinchisiga o‘tish vaqtini aniq belgilashga, bolalarning emotsiyalariga, nutqiy holatlari e‘tibor berishga, mashg‘ulot vaqtida yuzaga kelgan holatlarni va vaziyatlarni hal qilishga yordam beradi. 6 – 7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi rivojlanish xaritasida bolalar bilishi kerak bo‘lgan, bolalar adabiyotiga oid bir nechta sohalari mavjud ular quyidagi jadvalda aks etgan.

(Ijtimoiy – hissiy rivojlanish) <b>Kichik soha</b> <b>Hissiyotlar va ularni boshqarish</b>	Boshqa odamlar yoki adabiy asarlar qahramonlari hissiyotlari haqida gapiradi
(Ijtimoiy – hissiy rivojlanish) Kichik soha Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot	O‘yinlar o‘ylab topadi, syujet – rolli o‘yinlarda qatnashadi, turli ertaklarni drammalashtirishda qatnashadi
(Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari) Kichik soha Til va nutq	O‘z tajribasidan kelib chiqib, rasmga qarab mustaqil tarzda tasviri hikoya tuza oladi
	Turli janrdagi adabiy asarlarni ifodali hikoya qiladi
	Guruhi muhokamalarda eshitib, suhbatga qo‘shilib qatnashadi
	Topishmoqlarni topadi, qofiyalar tuzadi
	Gapirganda chet el so‘zlarini ishlataladi; kichik she‘rlar va qofiyalarni aytadi
Kichik soha O‘qish malakalari	Boshqa bolalarga kitob mazmunini yoddan aytib beradi
	Muloqotda sodda va murakkab gaplardan foydalanadi So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi
	Bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi
	Tovush, so‘z, bo‘g‘in, gap to‘g‘risida tushunchaga ega
	Peshlavhadagi yozuvlar kitoblar nomlari, rasmlar tagidagi yozuvlar va shu kabilarni o‘qiydi
	Bolalar adabiyoti janrlarini biladi(ertak, she‘r, hikoyalar)
	Mashhur bolalar yozuvchi va shoirlarini biladi
(Ijodiy rivojlanish) Kichik soha Dunyonni badiiy tasavvur etish	She‘rlarni ifodali o‘qib berishga qodir
	Tanish asarlarni mustaqil ravishda hikoya qilib beradi, ularni sahnalashtirishda ishtrirok etadi
	She‘riy va nasriy asarlarga hissiy munosabat bildiradi
	Musiqqa asarining kayfiyati va xarakterini aniqlashga qodir bo‘ladi

	Bolalar yozuvchi, shoir, bastakorlarini biladi
	Tasviriy san'at turlarini farqlaydi
Kichik soha Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Spektakllar qo'yishda o'z roli bilan qatnashadi

Fevral oy mavzusi	G'aroyib olam
2 – haftasi	Dunyo mamlakatlari
Syujet – rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi	A.Navoijyning "Non isi" asari bo'yicha
3 - haftasi	O'zbekistonning buyuk siymolari
Nutq va til markazi	A.Navoijyning "Ikki vafodor do'stlar" asari haqida suhbat
4 – haftasi	Kitoblar tarixi
Syujet – rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi	Kitob do'koni Kutubxona
Nutq va til markazi	Men yoqtirgan kitob

**Fevral oy mavzusi asosida tayyorlov guruhi bolalariga ta'lim – tarbiya berish buni mashg'ulot ishlanma negizida ko'rsatib o'taman.**

**Mavzu:** G'aroyib olam

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

**Ta'limiy:** Buyuk allomalar hayoti va ijodi bilan tanishtirish asosida tarbiyalanuvchilarning tasvvurini o'stirish, ularda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligini oshirish, nutqini o'stirish, ularning so'z boyligini oshirish

**Tarbiyaviy:** Bolalarda buyuk bobolar bilan faxrlanish, shuningdek ularga munosib izdosh bo'lish kerakligi haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, buyuk bobolarimiz A.Navoiy Z.M.Bobur portreti Registon maketi qurilishi uchun zarur bo'ladigan quruilish materiallari, magnit, rangli qalam va bo'yoqlar, un, non, yelim, milliy naqshlar, rangli qog'ozlar, qaychi.

Markazlar:

**Qurish va konstruktor o'yinlar matematika**

1. Registon maydoni yirik qurilish ashyolari
2. Ertaknamo Shahar yirik qurilish materiallari
3. O'z qo'llaring bilan kitobcha yarat

**Syujet – rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi**

1. A. Navoiyning "Non isi" asari bo'yicha

**Til va Nutq markazi**

1. A. Navoiyning “Ikki vafodor do‘stlar” asari haqida suhbat
2. Men yoqtirgan kitob
3. Sevimli ertaklar bo‘yicha adabiyotlar viktorinasi
4. A. Navoiy va Z.M. Boburning ruboiy, she‘rlaridan bolalar yod olishi

### **Ilm fan va tabiat markazi**

1. Un olish maqsadida donni yanchish

### **San‘at markazi**

1. Ko‘zani milliy naqshlar bilan bezatamiz.
2. Rasm – bizning sevimli ertaklarimiz
3. Rasm – registon maydonini chizish (sharq arxitekturasi albomini tamosha qilish)

### **Faoliyatning borishi:**

Men yoqtirgan kitob

Tarbiyachi: - Bolajonlar, hozir sizlarga ikkita kitob ko‘rsataman. Ular haqidagi fikrlaringizni aytинг. (Tarbiyachi ikkita: biri juda qarovsiz va muqovalari yirtilgan, chizib tshlangan hamda toza – ozoda saqlangan, muqovasi jild bilan o‘ralgan kitobni ko‘rsatadi. Bu bo‘yicha bolalar fikri so‘raladi.)

1 – bola: Mana bu kitobning egasi aqlsiz ekan, chunki u kitobni asramabti. Ikkinci kitobning egasi esa uni avaylab, xuddi yangidek saqlabti. Biz kitoblarni yaxshi asrashimiz kerak. (shu tariqa bolalar munosabat bildiradi)

Tarbiyachi: Endi sizlarga kitoblar qanday yaratilishi haqidagi videomaterialni namoyish qilaman. Diqqat bilan kuzating, tugaganidan keyin bub o‘yicha hikoya tuzamiz. (Nashriyot va bosmaxonalarda kitoblarni tayyorlash jarayoni aks etgan videomaterial AKT vositasida namoyish etiladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, nimalarni ko‘rganlaringizni hikoya qilib bering. Bunda birinchi kitoblar qanday va kim tamonidan yozilishi, qanday qilib kitob holiga keltirilishini gapirib berasiz.

2 – bola: Eng birinchi bo‘lib, yozuvchi, shoirlar kitoblarni yozishadi. Keyin uni nashriyotlarda o‘qib, xatosini tuzatishadi. Eng oxirida esa qog‘oz shaklidagi kitoblarni bosmaxonada bosib, chop etishadi. Kitoblarning muqovasi yumshoq yoki qattiq bo‘lishi mumkin. ( shu tarzda bolalar fikrlari tinglanadi)

Tarbiyachi: Ayting-chi, qaysi kitoblarning nomlari esingizda qolgan?

3 – bola: Ertaklar yaxshilikka yetaklar kitobi

4 – bola: Oltin tarvuz kitobi

( bolalardan kitob nomlari birma – bir so‘raladi)

Tarbiyachi: hozir bir o‘yin o‘ynaymiz, bunda sizlarga kitob nomlarini aytaman, agarda siz u kitobdagi ertak va hikoyalarni eshitgan bo‘lsangiz chapak chalasiz. Eshitmagan bo‘lsangiz, ikki qo‘lingizni tepaga ko‘tarasiz.

Chiroqli uycha; Jasur qiz; Zumrad va Qimmat; Gulgina; Uch og‘ayni botirlar  
(Bolalar ushbu kitob nomlarini eslaydi va eshitganlari bo‘yicha o‘yin shartini bajaradilar.)

Tarbiyachi: bolajonlar, endi bir harakatli o‘yin o‘ynaymiz. Bunda siz do‘stingizga xayolan kitob uzatasiz, u ham sizga xayolan kitob uzatadi. Qani hamma juft bo‘lib turib olsin-chi

(bolalar harakatli o‘yin bajarishadi.)

Tarbiyachi: endi esa juda ham qiziq o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga ertaklardan parcha aytaman, sizlar esa u qaysi ertak ekanligini topasiz.

Bir judayam sho‘x qiz bor ekan, uning ajoyib do‘sti bor ekan. Faqat do‘sti ayiq ekan...

Toping-chi, bu qaysi ertak? Bolalar: “Qizaloq va ayiqpolvon”.

Tarbiyachi: bir dehqon bor ekan, uning tarvuzlari mo‘l hosil beribti. Tarvuzni kesgan ekan qarasa ichi to‘la oltin ekan.

Topingchi-chi, bu qaysi ertak? Bolalar: - Oltin tarvuz ertagi

Tarbiyachi: bir kuni uch aka – uka yo‘lga tushibdi, ularning oldidan uchta yo‘l chiqibti

Bolalar: uch og‘ayni botirlar ertagi

Tarbiyachi: bir kuni chol bobo dengizga baliq tutgani boribti, to‘rni suv qariga uloqtiribti

Bolalar: Oltin baliqcha ertagi

Tarbiyachi: bir kuni turna tulkinikiga mehmonga kelibdi

Bolalar: Tulki bilan Turna ertagi

(O‘yin mana shu tarzda davom etadi)

Tarbiyachi: Ofarin! Sizlar juda ko‘p ertaklarni bilar ekansiz

Endi “Ha, yo‘q” o‘yinini o‘ynaymiz. Men sizlarga kitoblarni asrash bo‘yicha qoidalarni aytaman, agarda to‘g‘ri aytsam “ha” deb javob berasiz, noto‘g‘ri aytsam “yo‘q” deb javob berasiz.

Kitoblarni iflos qo‘llar bilan ushlamang (ha)

Kitoblar suvdan qo‘rqmaydi (Yo‘q)

Kitoblarni yirtmang (ha)

Xatcho‘pdan foydalanmang (yo‘q)

Kitoblarga chizish mumkin (Yo‘q)

Muqovasini bo‘yash mumkin (yo‘q)

Kitob javonda turishi kerak (ha)

Kitobning ustiga payola qo‘yish kerak (yo‘q)

Tarbiyachi: Barakalla, kitobning bizga bilim berishini, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishini yana bir bor bilib oldik. Keling, endi guruhlarga bo‘linib markazlarda sizga tayyorlab qo‘yilgan faoliyat bilan shug‘ullaning.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Is’hoqova M.R., Fayzullaeva M.Z., Kucharov J.R., Azizova N.Q., Sultonova N.M. “Maktabgacha yoshdagি bolalarni savodxonlikka o`rgatish”
2. Jalilova S.X, Aripova S.M “Maktabgacha yoshdagи bolalar psixologiyasi”- kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma -T. Faylasuflar nashriyoti, -2017
3. Azimova A, Qurbonov M, Hazratqulov M, Shavazova N “Bolalar adabiyoti antologiyasi” Uslubiy qo‘llanma. Sam.-2013
4. Komarova, T.S. “Bolalar bog'chasida vizual faoliyat darslari” Moskva. Мозаика-Синтез-2010
5. Kornev, A.N. “Bolalarda o‘qish va yozishning buzilishi (tashxis, tuzatish, oldini olish) Sankt-Peterburg: "MiM" nashriyoti, 1997 yil
6. DTS asosida maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari.
7. N. Erxonova Z.Ro‘ziyeva Tarbiyachi kitobi. Nutq o‘stirish